

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

## HOFIZ XORAZMIYNING IJODIY MEROSI VA UNING TARBIYAVIY ASOSLARI

**Kurbanova Shukurjon Yeldashbayevna**

*Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi  
shukurjonyeldashbayevna@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Hofiz Xorazmiy ijodiy merosining va uning tarbiyaviy asoslari hamda ularning o‘rganishning zarurati ochib berilgan. Shuningdek, shoirning devonida sevgi mavzusi doirasida tarbiya tushunchasini milliy va umumjahon madaniy qadriyatlar kontekstida qanday o‘ziga xoslik bilan ifoda etgani ham ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** Hofiz Xorazmiy, ijodiy merosi, tarbiyaviy masalalar, ma’naviy va axloqiy qadriyatlar, she’riy uslubda tarbiya.

**Kirish.** Har bir xalqning madaniy va ma’naviy boyligi uning ulug‘ ajdodlari yaratgan bebaho merosida namoyon bo‘ladi. Bu boylik faqatgina tarixiy yodgorlik emas, balki kelajak avlodni tarbiyalashda ulkan manba va ustunlikka aylanadi. Bugungi globallashuv davri nafaqat rivojlanish imkoniyatlarini, balki ma’naviyat va axloqiy qadriyatlarga tahdid soluvchi omillarni ham o‘zi bilan olib kelmoqda. Yosh avlodning ongi va tafakkurini begona g‘oyalar ta’siridan himoya qilish, ularning ma’naviy dunyosini boyitish va mustahkamlash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Zero, Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Ta’lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi.” [1]

Hofiz Xorazmiyning ijodiy merosi aynan mana shunday ma’naviy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan bo‘lib, unda sevgi, do‘stlik, poklik, vafo, insoniylik, adolat kabi mavzular ulug‘langan. Hofiz Xorazmiy devonidagi she’rlar nafaqat o‘z davri uchun dolzarb bo‘lgan, balki bugungi zamonning tarbiya va axloqiy muammolarini hal qilishda ham muhim omil bo‘la oladi. Uning ijodida inson qalbini yuksaltirish, yoshlarning ma’naviy dunyosini boyitish va ularni milliy qadriyatlarga sadoqatli bo‘lishga chorlash kabi yuksak didaktik g‘oyalar ifodalangan. Ayniqsa, uning sevgi va ma’rifat orqali insoniy kamolotga yetish haqida yozgan asarlari hozirgi tarbiya tizimida ham beqiyos ahamiyatga ega.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Hofiz Xorazmiyning ijodiy merosida aks etgan tarbiyaviy g‘oyalar tahlil qilinadi. Uning she’rlari orqali yosh avlodni insonparvarlik, ma’rifatparvarlik va axloqiy barkamollikka yetaklash imkoniyatlari o‘rganiladi. Shu bilan birga, Hofiz Xorazmiyning asarlarida ifodalangan tarbiyaviy yondashuvlarning bugungi globallashuv sharoitida milliy tarbiyaning muhim qismi sifatida ahamiyati

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

yoritiladi hamda ba’zi misralarining didaktik tahlili, sintez va abstrakt fikrlash orqali ochib beriladi.

Hofiz Xorazmiy yashab, ijod qilgan davr ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan va o‘rganilmoqda. Umuman XIV-XV asr Sharq dunyosi mutafakkirlar tomonidan yaratilgan didaktik asarlardagi mazmun «komil insonni tarbiyalash»ga qaratilgan ekan, bu maqsad tarbiya masalasi bilan hamohang. Chunki, shaxs axloqi, ma’naviyati, ma’rifati, falsafiy dunyoqarashi, badiiy yondashuvini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish vazifalari aniq ifodalangan. Bu mutafakkirlarning merosni o‘rganish, tadqiq qili, yondashuvlarni faoliyatda qo‘llash va rivojlantirish maqsadida dunyo miqyosida turli sohada ilmiy-amaliy ishlar olib borilmoqda. Hususan, A.Lawler[2], W.Haney[3], R.Toparli[4] va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlari bunga misol sifatida keltirish mumkin.

Yurtimiz olim va tadqiqotchilaridan H.Sulaymonov[5], M.Sulaymonov[6], J.Jo‘rayev[7], M.Inog‘omxo‘jayeva[8], Yu.Jumanazarov[9], S.Hasanov[10], I.Haqqulov[11] va boshqalar Hofiz Xorazmiy ijodiy merosi lirikasining badiiy xususiyatlari, ma’naviy, axloqiy va tarbiya masalalari hamda qadriyatlarining ifodalanishi turli yondashuvlar asosida tadqiq qilishgan.

Shuningdek, turkiyalik olim R.Toparli[4] va o‘zbek olimi M.Sulaymonovlarning[5] ilmiy maqolalari orqali Hofiz Xorazmiy devonidan joy olgan obrazlarning falsafasi, uning tarbiyaviy ahamiyati yoritib berilgan. Zero, tarbiya masalasi Hofiz Xorazmiyning ma’rifiy-didaktik qarashlarining yorqin namunasi bo‘lib, zamonaviy tarbiya tizimida ham qo‘llash uchun muhim manba hisoblanadi. Shoirning sevgi va insoniylik haqidagi qarashlari yoshlarning ma’naviy dunyosini boyitishda, ularni ezgulik va barkamollikka chorlashda ulkan ahamiyatga ega.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Sharq didaktik adabiyotga me’yorlariga xos bitilgan Hofiz Xorazmiy devonini, adabiy shakliga ko‘ra “she’riy didaktik asarlar” qatoriga kiritish mumkin. Zero, Hofiz Xorazmiy she’riyati axloqiy va tarbiya masalalari bilan o‘z davrining ilg‘or g‘oyasi, so‘z san’atining mumtoz va yetuk vakili sifatida alohida ajralib turadi. Uning ijodi har bir insonni axloqiy barkamollikka, mas’uliyatli bo‘lishga va ma’naviy yuksalishga chorlash bilan birga, yoshlar tarbiyasida yuksak odob va axloqni shakllantirish uchun ulkan saboq beradi.

Buni biz ushbu g‘azal (bir parcha) orqali ko‘rib chiqamiz:

*Agar shoh-i zamon bo‘lmoq tilasang odam o‘g‘li bo‘l,  
Chu majmu‘-i jahonning ichra barhaq shoh Odamdur. [12]*

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Hofiz Xorazmiyning ushbu o‘giti insonning yuksak fazilatlari, kamolotga erishish va haqiqiy insoniylikni anglash haqida chuqur ma’nolarni o‘zida mujassam etadi. Ushbu ikki misra insonni o‘zligini anglash va jamiyatda hurmatga sazovor bo‘lish uchun ma’naviy va axloqiy jihatdan yuksak bo‘lishga da’vat etadi. Quyida g‘azalni mazmuni va tarbiyaviy ahamiyati asosida tahlil qilamiz:

1. Haqiqiy inson (tarbiyali odam) bo‘lish masalasi. *“Bo‘lmoq tilasang odam o‘g‘li bo‘l,”* Shoir insonning haqiqiy qadri uning odob-axloqida mujassam ekanligini ko‘rsatadi. *“Odam o‘g‘li bo‘l”* iborasi insoniy fazilatlarning butunligini anglatadi. Axloqli inson jamiyatda hurmat qozonadi va boshqalarga namuna bo‘ladi. Shuningdek, haqiqiy *“Odam”* bo‘lishini nafaqat tug‘ilish bilan, balki yuksak axloqiy fazilatlarni egallash bilan bog‘laydi. *“Odam o‘g‘li”* bo‘lish shunchaki inson sifatida yashash emas, balki ma’naviyat, axloq va samimiylilik bilan hayot kechirishni anglatadi.

Tarbiyaviy saboq: Ushbu fikr yoshlarni insoniylikning yuksak qadriyatlarini tushunishga va ularga amal qilishga undaydi. Haqiqiy inson bo‘lish uchun inson axloqiy poklikka intilishi kerak. U esa halollik, odillik, va rahmdillik kabi qadriyatlarni o‘zida shakllantirish masalalaridir.

2. Insoniyatning markaziy o‘rni. *“Chu majmu’-i jahonning ichra barhaq shoh Odamdur.”* Baytdagi *“shoh”* so‘zi faqatgina hukmdor ma’nosida emas, balki hayotiy mas’uliyatni his qilishni ham anglatadi. Shuningdek, shoirning fikricha, butun olamning markazi va eng ulug‘ yaratiq insondir. Insonning bu yuksak maqomi uning aql-idroki, ma’naviy dunyosi va axloqiy fazilatlari bilan bog‘liq. Olam ichida insonning *“shoh”* maqomida turishi uning mas’uliyatini oshiradi.

Tarbiyaviy saboq: Ushbu satr yoshlarga inson sifatida o‘z o‘rnini anglashni va mas’uliyatli bo‘lishni o‘rgatadi. Har bir inson dunyoda o‘z vazifasini tushunib, yuksak maqsadlar sari intilishi kerak. Zero, har bir inson o‘z harakatlari va qarorlari uchun mas’uldir.

Xorazmiy insonning ma’naviy kamolotini ta’kidlaydi. Dunyoda oliy maqomga erishish faqat moddiy boylik yoki mavqe orqali emas, balki ruhiy va axloqiy jihatdan yuksaklikka intilish orqali amalga oshadi. Shohlik adolatli boshqaruvni talab qiladi. Inson o‘z hayotida va jamiyatda adolatni targ‘ib qilishi va boshqalar uchun foydali ishlarni amalga oshirishi kerak. Bu tarbiyaviy jihatdan yoshlarga ilm olishga, o‘z ustida ishlashga, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish va o‘z kuchini adolat yo‘lida ishlatishni o‘rgatadi. Bunday tushunchalarini unutmasligimiz kerak deydi hamda kamolotga yetishishga undaydi.

Buni biz ushbu g‘azal (bir parcha) orqali ko‘rib chiqamiz:

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

*Ma’shuq birla oshiq agar pok borsalar,  
Nozu niyoz ikkisini sohib-i kamol etar.*

*Jon toza qildi, Hofiz, o’shaning shakkar labi,  
Chun ruh-i toza har nafas ob-i zulol etar.* [12]

Hofiz Xorazmiyning ushbu g‘azali insoniy munosabatlarning eng go‘zal jihatlarini yoritib, sevgi, poklik va kamolotga erishish yo‘lini falsafiy jihatdan ochib beradi. Shoir sevgi-muhabbatni nafaqat hissiy holat, balki insoniy barkamollikka yetaklovchi yuksak qadriyat sifatida talqin qiladi. Quyida g‘azalni mazmuni va tarbiyaviy ahamiyati asosida tahlil qilamiz:

1. Poklik va ma’naviy yuksalish. “*Ma’shuq birla oshiq agar pok borsalar, Nozu niyoz ikkisini sohib-i kamol etar.*” Bu satrda oshiq va ma’shuqning pok bo‘lishi ulug‘lanadi. Shoirning fikricha, sevgi-muhabbat samimiy va sof qalbdan bo‘lishi lozim. Faqat pok tuyg‘ularni ulug‘lagan sevgi insonni haqiqiy barkamollikka olib boradi. Noz va niyoz – o‘zaro muloqotda hurmat va samimiyatni anglatadi, bu esa munosabatlarni mukammallashtiradi.

Tarbiyaviy saboq: Ushbu fikr yoshlarga sevgi va do‘stlikda sadoqat va poklik muhimligini eslatadi. Har qanday munosabatda sof niyat va hurmat asosiy qadriyat ekanligi o‘rgatiladi.

2. Go‘zallikning ruhiy poklanishga ta’siri. “*Jon toza qildi, Hofiz, o’shaning shakkar labi,*” Shoir ma’shuqning go‘zalligini ramziy tarzda tasvirlaydi va uning ta’sirini oshiqning ruhini poklaydigan kuch sifatida ifodalaydi. Bu yerda tashqi go‘zallikdan tashqari, ichki go‘zallik va ruhiy quvvatni ham ulug‘laydi. Go‘zallik, agar u ma’naviy yuksalishga sabab bo‘lsa, inson qalbini yangilaydi va jonni poklaydi.

Tarbiyaviy saboq: Ushbu satr yoshlarni nafaqat tashqi ko‘rinishga, balki ichki dunyoga ham e’tibor qaratishga undaydi. Bu ularni o‘z ma’naviy olamini boyitishga, yuksak qadriyatlarni rivojlantirishga chorlashdir.

3. Ruhiy yuksalishning ahamiyati. “*Chun ruh-i toza har nafas ob-i zulol etar.*”

Shoirning fikricha, ruhiy poklik insonni har nafasda tozalaydi va yuksaltiradi. Ruhning tozaligi hayotning har bir lahzasini sof va mazmunli qiladi. Bu yerda poklik nafaqat axloqiy, balki ruhiy jihatdan ham insonning mukammallikka erishishini anglatadi.

Tarbiyaviy saboq: Ushbu fikr yoshlarni har bir nafasini ma’rifat va axloq yo‘lida bag‘ishlashga undaydi. Ruhiy tozalikka erishish orqali inson hayotini mazmunli va ahamiyatli qilish mumkinligi ta’kidlanadi.

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Hofiz Xorazmiyning ijodiy merosida uning tarbiya masalasi qamrab olgan janrlar qatorida g‘azal janridan tashqari ruboiy janrida ham o‘rin olgan.

*Nokas kishi hech mahram-i jon bo‘lmas,  
Sho‘ra yer uza bog‘u guliston bo‘lmas,*

*Kim dard-i diloromni savmasa jontak,  
Hargiz o‘shaning dardina darmon bo‘lmas. [13]*

Hofiz Xorazmiyning mazkur ruboiysi insonning ma’naviy poklikka erishishi, chin insoniylik va boshqalar dardiga hamdard bo‘lish kabi yuksak qadriyatlarni ulug‘lashga bag‘ishlangan. Bu ruboiyning har bir satri insoniy munosabatlarning ma’rifiy va tarbiyaviy asoslarini ifodalaydi.

1. Insonning ma’naviy fazilatlari va chin do‘stlik. “*Nokas kishi hech mahram-i jon bo‘lmas,*” Bu satrda shoir insonning haqiqiy dardkash va chin do‘st bo‘lishi uchun ma’naviy boylikka ega bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. “Nokas” atamasi – ma’naviy jihatdan qashshoq, o‘z axloqiy kamolotiga beparvo kishilarni anglatadi. Bunday odam hech qachon boshqalarning yurak sirlarini his qiladigan, dardiga sherik bo‘la oladigan darajaga yetmaydi.

Tarbiyaviy saboq: Bu satr yoshlarni ma’naviy poklik va insoniy fazilatlarni rivojlantirishga undaydi. Ular har qanday munosabatda samimiylik va ishonchni ustuvor qo‘yishlari zarurligini ko‘rsatadi.

2. Ma’naviy quruqlikning natijalari. “*Sho‘ra yer uza bog‘u guliston bo‘lmas,*” Bu yerda shoir quruq va zax yerni ramziy ma’noda insonning ma’naviy quruqligi bilan taqqoslaydi. Ma’naviy jihatdan boy bo‘lmagan inson hech qachon o‘z yuragida go‘zallik, mehr-muhabbat va chin insoniylikka joy bera olmaydi.

Tarbiyaviy saboq: Bu satr insonning o‘z ma’naviy olamini rivojlantirishi, ichki dunyosini boyitishi kerakligini eslatadi. Bu o‘git yoshlar uchun o‘z qalbini poklash va doimo ma’naviy izlanishda bo‘lish muhimligini ko‘rsatadi.

3. Hamdardlik va insonparvarlik. “*Kim dard-i diloromni savmasa jontak,  
Hargiz o‘shaning dardina darmon bo‘lmas.*” Bu satr boshqalar dardiga hamdard bo‘lmagan, ularning hissiyotlarini anglamagan odam hech qachon ularga malham bo‘lolmasligini anglatadi. Shoir hamdardlik va empatiya insoniy munosabatlarning eng muhim jihatlaridan ekanligini ta’kidlaydi. Tarbiyaviy saboq: Bu fikr yoshlarni boshqalarning his-tuyg‘ularini qadrlashga, ularning dardiga sherik bo‘lishga

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

chorlaydi. Empatiya insoniy aloqalarda hal qiluvchi omil bo‘lib, jamiyatda mehr-muruvvat va birdamlikni shakllantiradi.

**Xulosa.** Sharq Uyg‘onish davrlari allomalarning shaxs kamoloti borasidagi tarbiyaviy yondashuvlari xos didaktik qarashlar hamma vaqt bizni o‘ziga maftun qiladi. O‘zbek adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri Hofiz Xorazmiy ham o‘zining ijodiy merosi bilan milliy ma’naviyatimizning poydevorini mustahkamlagan ulug‘ siymolardan biridir. Uning devonidagi ma’rifiy va didaktik g‘oyalar bugungi kun yoshlarini axloqiy jihatdan barkamol, ma’naviy yetuk shaxs sifatida shakllantirishda ulkan ahamiyatga ega. Zero, bugungi globallashuv davrida Hofiz Xorazmiyning yuqorida ko‘rib o‘tilgan g‘azali sevgi va insoniy munosabatlarda axloqiy fazilatlarni qadrlash zaruratini eslatadi. Yoshlar o‘rtasida hurmat, samimiyat va poklikni targ‘ib etish, ularni ruhiy yuksalishga undash uchun g‘azaldagi mazmuniy fikrlardan foydalanish lozim. Ushbu g‘azal (bir parcha) axloqiy va ma’naviy tarbiyaning muhim vositasi sifatida zamonaviy ta’lim tizimida keng qo‘llanishi mumkin.

Jumladan:

1. Poklik va samimiyat tushunchasi;

Insoniy munosabatlarning asosi poklik va samimiyatdir. Ushbu qadriyatlar sevgi-muhabbatda ham, boshqa har qanday aloqada ham ustuvor bo‘lishi kerak. Bu fikr yoshlarni axloqiy barkamollikka chorlaydi.

2. Go‘zallikning ma’naviy kuchi masalasi;

G‘azalda tashqi va ichki go‘zallikning inson qalbiga va ruhiga ta’siri ulug‘lanadi. Bu yoshlarni ichki go‘zallikni rivojlantirishga, ma’naviy fazilatlarni qadrlashga o‘rgatadi.

3. Ruhiiy kamolotiga intilish g‘oyasi;

G‘azal ruhning pokligi va bu orqali ma’naviy kamolotga erishishning zarurligini ko‘rsatadi. Bu o‘z navbatida yoshlar uchun ichki dunyoni boyitishning muhimligini anglatadi.

Hofiz Xorazmiyning yuqorida ko‘rib chiqilgan ruboiysini eslasak, u bugungi globallashuv davrida axloqiy qadriyatlarning yo‘qolib borishi xavfi oldida tarbiya tizimi uchun muhim manba bo‘la oladi. Yoshlar orasida insonparvarlik, mehr-oqibat va empatiya tuyg‘ularini rivojlantirish uchun ushbu ruboiyni keng targ‘ib etish zarur. Shuningdek, o‘quv jarayonlarida ruboiyni tahlil qilish orqali yoshlarni insoniy kamolotga chorchash va ularni axloqiy jihatdan mustahkam shaxs sifatida shakllantirish mumkin.

Jumladan:

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

### 1. Ma’naviy poklik tushunchasi;

Ruboiyning asosiy saboqlaridan biri shundaki, inson chin do‘st bo‘lishi uchun avvalo o‘z ma’naviy olamini tozalashi va boyitishi kerak. Axloqiy fazilatlar insoniy munosabatlarning asosi ekanligi ko‘rsatiladi.

### 2. Empatiya va hamdardlik yondashuvlari;

Inson boshqalar dardini his qilmasa, ular uchun malham bo‘lolmaydi. Bu yosh avlodni boshqalarning holatiga chuqur qiziqish bilan qarashga o‘rgatadi.

### 3. O‘z ustida ishlash va rivojlanish masalasi;

Sho‘ra yerni bog‘-u gulistonga aylantirish mumkin bo‘lmagani kabi, inson o‘z ustida ishlamasa, uning ma’naviy olami kamolotga erishmaydi. Bu saboq yoshlarni o‘zlarining ichki dunyosini boyitishga undaydi.

### 4. Samimiylikka intilish masalasi;

Ruboiyning har bir satri insoniylikning samimiyat va poklik asosida yuksalishini ko‘rsatadi.

Shoirning satrlari inson qalbining qiyinchiliklardan o‘tib, baxt, qoniqish va shaxsiy kamolotga erishish yo‘llarini ko‘rsatadi. U insonning oliy maqomi va axloqiy fazilatlarini yuksak darajada ulug‘laydi. Yuqorida keltirilgan misralar yoshlarga insoniy fazilatlarini egallash, axloqiy poklik va mas‘uliyatni his qilish, shuningdek, ma’naviy yuksaklikka erishish zarurligini o‘rgatadi. Bugungi kunning murakkab muhitida bu kabi darslar yosh avlod uchun nihoyatda muhim bo‘lib, ularni hayotda to‘g‘ri yo‘lga boshlashga xizmat qiladi. Shunday qilib, tahlillarda aks etgan chuqur qadriyatlar nafaqat muhabbatni, balki insonning ruhiy kamolotga erishish yo‘lida tarbiya masalasining muhim ekanligi ko‘rsatadi va tadqiqotchilarni yangi-yangi izlanishlarga undaydi.

### Adabiyotlar:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida maktab ta’limini rivojlantirish masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi. 28.01.2022. Veb sahifa manzili: <https://yuz.uz/uz/news/talim-tarbiya--bu-bizning-kelajagimiz-hayot-mamot-masalasi--shavkat-mirziyoev>
2. Lawler, Andrew., "Medieval Pedagogical Texts and Their Modern mplications," London: Cambridge University Press, 2021. – 275 pp.
3. Haney, William. "Central Asian Legacy in Modern Education," New York: Routledge, 2019. – 250 pp.
4. Rejep Toparli. Çağatay Şâiri Hâfiz Hârezmî., Türk Dünyası Araştırmaları (Şubat). - İstanbul: 1984. - 1-32 s.
5. Сулаймон Ҳ. Ўзбек шоири Ҳофиз Хоразмий ва унинг Ҳайдарободдан топилган девони. // Ж.: Адабий мерос. - Т.,1976. 6-сон., - 34-43 б.
6. Сулаймонов.М. Ҳофиз Хоразмий ахлоқ-одоб ҳақида. // НамДУнинг 50 йиллигига бағишланган илмий тўплам. – Наманган, 1992, -80-83 б.

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

7. Жўраев Ж. Ўзбек адабиётидаги илк марсия.// Ж.: Шарқ юлдузи. - Т., 2015. 6-сон., 10-21 б.
8. Иноғомхўжаева М. Хофиз Хоразмий лирикасида ташбех // Ж.: Адабий мерос. - Т.,1982. 2-сон., - 82-85 б.
9. Жуманазаров Ю. Хофиз Хоразмий ва ўзбек адабий тили // Ж.: Адабий мерос. - Т.,1983. 1-сон., - 42-46 б.
10. Ҳасанов С. Хоразм мутафаккирларининг маърифий-педогогик қарашлари (Энг қадимги даврдан XX аср бошларигача): дис. ...пед. фанлари д-ри: 13.00.01/ Ҳасанов С. – Т., – 2000. – 310 б.
11. Ҳаққулов И. Ғазал гушани. - Т.: Фан, 1991. – 38 б.
12. Ҳофиз Хоразмий. Девон. 2 том. 1-китоб. - Т.: ЎзКПМК, 1981. - 304 б.
13. Ҳофиз Хоразмий. Девон. 2 том. 2-китоб. - Т.: ЎзКПМК, 1981. - 312 б.